



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
FARMOYISHI**

Angor tumani, At-Termiziy ko'chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 16 - may

55-8-109-F/22

Angor tuman hokimligi

Tumanda 2022-yil boshoqli don ekinlari hosilini o'z vaqtida o'rib-yig'ib olishga puxta tayyorgarlik ko'rish, mavjud g'alla o'rish kombaynlaridan samarali foydalanish, shuningdek, yetishtirilgan g'alla hosili hisob-kitoblarini to'g'ri olib borish maqsadida

1. Quyidagilar:

Angor tumanida 2022-yil hosili uchun yetishtirilgan boshoqli don hosilini nest-nobud qilmasdan, qisqa muddatlarda o'rib-yig'ib olishga tayyorgarlik ko'rish va optimal muddatlarda yig'ib olishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga;

2022-yil hosili uchun ekilgan boshoqli don ekinlarining o'rim-yig'im mavsumini uyushqoqlik bilan tashkil qilish bo'yicha tuman shtabi tarkibi 2-ilovaga;

boshoqli don ekinlarining o'rim-yig'im mavsumida don tashish ishlarini, don qabul qilishni, neft mahsulotlari ta'minoti, hisob-kitob ishlari hamda tuzilgan shartnomalarning bajarilishini monitoring qilish ishchi guruhlari tarkibi 3-ilovaga;

2022 yil hosili uchun ekilgan boshoqli don ekinlari o'rim-yig'imini tashkil qilish bo'yicha tuman shtabi va ishchi guruhlariiga yuklatilgan vazifalar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi bir kun muddatda shtablar va ishchi guruhlarni tashkil qilsin hamda g'alla o'rim-yig'imiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilasasin.

3.Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari

J.Po‘latov zimmasiga yuklatilsin.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV

Angor tuman hokimining
2022 yil 16 maydag'i
55-8-109-F/22-son farmoyishiga
1-ilova

**Tumanda 2022 yil hosili uchun yetishtirilgan g‘allani nes-nobud qilmasdan, qisqa muddatlarda o‘rib-yig‘ib olishga
tayyorgarlik ko‘rish va optimal muddatlarda yig‘ishtirib olishni tashkil etish bo‘yicha**

ChORA-TADBIRLAR DASTURI

Nº	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijrochi mas’ul
1.	G‘alla o‘rim-yig‘imi mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni uyushqoqlik bilan o‘tkazish bo‘yicha tuman hokimining qarorini qabul qilish va chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash.	2022 yil 20 may	Tuman hokimligi, aloqador tashkilotlar
2.	2022 yil boshqoli don ekinlari hosilini yig‘ishtirib olish va davlatga sotishni uyushqoqlik bilan o‘tkazish bo‘yicha tuman shtabini tashkil etish hamda shtab a’zolarining o‘rim-yig‘im mavsumi davomida bajaradigan aniq vazifalar taqsimotini ishlab chiqish.	2022 yil 20 may	Tuman hokimligi
3.	G‘alla o‘rim yig‘imi va don tashishda ishtirok etadigan har bir mas’ullarni g‘alla o‘rim-yig‘imini tashkil etish bo‘yicha “Vaqtinchalik tartib” va unda belgilangan javobgarlik bilan tanishtirish.	2022 yil 20 may	Tuman hokimligi
4.	G‘alla o‘rish kombaynlarini, don tashish uchun jalb etiladigan barcha turdag'i transport vositalarini, shuningdek don yig‘iladigan xirmon va maydonlarni, don tozalash mashinalarini tayyor holga keltirish.	2022 yil 20 may	Tuman “Agroservis MTP-2017” MChJ, tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, Angor Don mahsulotlarini qabul qilish shaxobchasi
5.	Tayyorlov korxonalari va punktlarida xo‘jaliklardan g‘allani faqat dastlabki tozalangandan keyin, iflosligi va namligi bo‘yicha amaldagi standart va normativlarga qat’iy rioya etgan holda qabul qilish.	Mavsum davomida	Angor Don mahsulotlarini qabul qilish shaxobchasi

№	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijrochi mas'ul
6.	Kuchli begona o't bosishi mumkin bo'lgan hududlarda o'rib olingan g'allani quritish va dastlabki tozalash uchun markazlashtirilgan maskanlarni belgilash va ularni mavsumga tayyorlash.	2022 yil 20 may	Angor Don mahsulotlarini qabul qilish shaxobchasi
7.	Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan kat'iy nazar mavjud yuk avtomobilari, transport traktori va tirkamalari, yoqilg'i tashish va quyish avtomobilari, g'ildirakli kichik ekskavator va yuk ortgichlar, yer tekislagichlar, texnik xizmat ko'rsatuvchi avtomobillar ro'yxatini tuzib, texnik holatini tekshiruvdan o'tkazib, ularning egalari bilan g'alla o'rim-yig'imiga jalb etish bo'yicha uch tomonlama (don qabul qilish korxonasi, avtokorxonalar fermer xo'jaligi va g'allachilik klasterlari) shartnoma tuzilishini ta'minlash.	2022 yil 20 may	Tuman IIB YXXB, tuman hokimligi, Agroinspeksiya tuman bo'limi
8.	O'rim-yig'im mavsumida kombaynlar uchun talab etiladigan ehtiyoj qismlar zaxirasini va ular uchun talab qilinadigan mablag'lar zaxirasini yaratish.	2022 yil 20 may	Tuman "Agroservis MTP" MChJ, "Zamin Angor cluster" MChJ
9.	G'alla o'rimi uchun yuqori unumli chet el va oddiy kombaynlarning o'rim haqini hisoblab chiqish (bunda chet el kombaynlarining lizing to'lovlari to'langan qismini e'tiborga olib) va narxini belgilash.	2022 yil 20 may	Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi, tuman "Agroservis MTP" MChJ, "Zamin Angor cluster" MChJ
10.	O'rim-yig'im mavsumi davomida zarur bo'ladigan yoqilg'i moylash materiallari hisobini ishlab chiqib zaxirasini yaratish, yonilg'i tashiydigan va quyadigan avtotransport vositalarini tayyorlash.	2022 yil 20 may	"Zamin Angor cluster" MChJ
11.	Tumandagi fermer xo'jaliklarining joylashuvi va ularning g'alla maydonlari, ishlab chiqaradigan hamda davlatga topshiradigan (bankdan g'alla yetishtirish uchun olgan kredit mablag'larni qoplash darajasidagi) g'alla xajmlarini hisobga olgan holda o'rim-yig'im otryadlarini tashkil etish, ularga kombaynlar, yuk trans agentliklari, texnik xizmat ko'rsatish, yoqilgi tashish va quyish mashinalari, aloqa vositasi bilan butlash.	2022 yil 20 may	Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi, "Agroservis MTP" MChJ, "Zamin Angor cluster" MChJ
12.	G'alla o'rimi maydonlarida, o'rim-yig'im otryadlarida, don quritish maskanlarida yong'in havfsizligi choralarini belgilash. Buning uchun boshoqli don maydonlarining kombayn qaytish joylarini o'rib, somonini olib chiqib ketish va yong'inga qarshi shudgor qilish.	Har bir g'alla maydonini o'rim oldidan	Tuman Ichki ishlari bo'limi, tuman IIB yong'in havfsizligi bo'limi, Angor Don mahsulotlarini qabul qilish shaxobchasi

№	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijrochi mas'ul
13.	Har bir kombaynni va boshqa g‘alla maydonlariga kiradigan transportlarni o‘t o‘chirish vositalari (iskragasitel va ognetushitel, kiygiz, supurgi, qum, belkurak) bilan ta’minlash. Don quritadigan va qabul qilish maskanlarida o‘t o‘chirish vositalari bilan birgalikda, kerakli miqdordagi suv to‘ldirilgan hovuz, nasos, shlanka bo‘lishini ta’minlash.	2022 yil 20 may	Tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman IIB yong‘in xavfsizligi bo‘limi, Angor Don mahsulotlarini qabul qilish shaxobchasi
14.	2022 yilgi boshoqli don ekinlari hosilining talon-taroj qilinishiga va nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan zarur chora- tadbirlarni amalgga oshirish.	Mavsum davomida	Tuman Ichki ishlar bo‘limi,
15.	Yerlarni shudgorlashdan oldin tozalash maqsadida dalalardagi ekin poyalari va qoldiqlari yoqib yuborilishi oldini olish, aniqlangan holatlар bo‘yicha aybdorlarga nisbatan jazo choralarini belgilash.	Mavsum davomida	Tuman Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i,
16.	Har bir hududning sharoitidan (g‘allaning ekish va pishish muddatlari, dalaning o‘t bosganligiga qarab) kelib chiqib o‘rim grafigini konturlar bo‘yicha ishlab chiqish.	2022 yil 20 may	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi
17.	O‘rim-yig‘im ishlarini 2 smenada tashkil etish, bunda tungi vaqtarda ishlovchi kombaynlarning to‘liq ishlashi uchun yoritgichlar bilan to‘liq ta’minlash.	2022 yil 20 may	Tuman “Agroservis MTP” MChJ
18.	Don mahsulotlari shaxobchalariga yetkazib beriladigan g‘alla va urug‘lik materiali sifati ustida tegishli nazorat o‘rnatish Urug‘lik g‘allani davlat resurslari uchun harid qilinadigan tovar g‘allaning umumiy hajmi hisobiga topshirish, shuningdek oziq-ovqat g‘allasini urug‘lik maqsadida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik.	Mavsum davomida	Angor Don mahsulotlarini qabul qilish shaxobchasi
19.	Don sotish to‘g‘risidagi statistika hisobotlarining ishonchliligin ta’minlash uchun don qabul qilib olish korxonalari bo‘yicha muntazam ravishda tekshirib borilishini amalgga oshirish va kunlik ma’lumotlarni viloyat hokimligiga berib borish.	Mavsum Davomida	Tuman statistika bo‘limi
20.	Xo‘jaliklar bilan - davlat ehtiyojlariga xarid qilinayotgan g‘alla uchun, “Agroservis MTP 2017” MChJ bilan - ko‘rsatilgan mexanizatsiya xizmatlari uchun o‘z vaqtida hisob-kitob qilinishini ta’minlash.	Mavsum davomida	Tuman Tijorat banki, Angor Don mahsulotlarini qabul qilish shaxobchasi
21.	O‘rim-yig‘im davrida ish haqi sifatida beriladigan mablag‘lari hisob-kitobini qilish va har besh kunda kombaynchi va haydovchilarga to‘lab berilishini ta’minlash.	O‘rim davrida har 5 kunda	Tumandagi tijorat banklari
22.	O‘rim-yig‘im mavsumi davomida o‘rnak ko‘rsatgan kombaynchi, transport haydovchisi va boshqa ishtirokchilarni moddiy rag‘batlantirish, barcha ishtirokchilarga madaniy, maishiy sharoitlar yaratish.	Mavsum davomida	Tuman “Agrotexservis MTP” MChJ

Angor tuman hokimining
2022 yil 16 maydagi
55-8-109-F/22-son farmoyishiga
2-ilova

**Tumanda 2022 yil hosili uchun ekilgan boshoqli don ekinlarini
o‘rim-yig‘im mavsumini uyushqoqlik bilan tashkil qilish bo‘yicha tuman Shtabi
TARKIBI**

Sh.Abdullaev

Tuman hokimi, **shtab boshlig‘i**

O.Mamayusupov

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, **shtab boshlig‘i o‘rinbosari**

J.Po‘latov

Tuman hokimining o‘rinbosari, **shtab boshlig‘i o‘rinbosari**

S.Ramazonov

Tuman prokurori, **shtab boshlig‘i o‘rinbosari**

S.Choriev

Tuman IIB boshlig‘i,

shtab boshlig‘i o‘rinbosari

O.Muratov

Tuman Davlat Soliq Inspeksiyasi boshlig‘i,
shtab boshlig‘i o‘rinbosari

B.Jo‘raev

Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i,
shtab boshlig‘i o‘rinbosari

Sh T A B A ‘ Z O L A R I

M.Ishboev

Tuman IIB YXXG boshlig‘i

A.Raximov

Tuman “Agroinspeksiya” bo‘limi boshlig‘i v.v.b
“Agroservis MTP” MChJ raisi

X.Amanto‘raev

Tuman Moliya bo‘limi boshlig‘i

S.Qo‘chqorov

“Tuman DMQQSh” mudiri

Q.Normamatov

Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer
egalari kengashi raisi

T.Ishpo‘latov

Tuman 29-FAYoQSh mudiri

B.Xolmurodov

Tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i

Sh.Odinaev

ATB “Agro bank” Tuman filiali boshqaruv raisi

I.Xakimov

Tuman Statistika bo‘limi boshlig‘i

A.Xudoyorov

Angor tuman hokimining
2022 yil 16 maydagi
55-8-109-F/22-son farmoyishiga
3-ilova

Boshoqli don ekinlarini o‘rim-yig‘im mavsumida, don tashish ishlarini, don qabul qilishni, neft mahsulotlari ta’minoti, hisob-kitob ishlari hamda tuzilgan shartnomalarning bajarilishini monitoring qilish ishchi guruhlari tarkibi

I-guruh

**G‘alla o‘rish kombaynlarini samarali foydalanish va
ehtiyyot qismlar ta’minoti guruhi**

Ismi sharifi	Lavozimi
X.Amanto‘raev	“Agroservis MTP” MChJ raisi, guruh rahbari
T.Toksanboev	“Zamin Angor cluster” MChJ boshlig‘i

II-gurux

**Donni Klaster va fermer xo‘jaliklari dalasidan don korxonalariga tashishni
tashkil qilish guruhi**

Ismi sharifi	Lavozimi
B.Rasulov	Tuman IIB boshlig‘i o‘rinbosari, guruh rahbari
M.Ishboev	Tuman IIB YXXG boshlig‘i
T.Toksanboev	“Zamin Angor cluster” MChJ boshlig‘i
B.Xolmurodov	Tuman 29- FAYoQSh mudiri

III-guruh

Don qabul qilinishini tashkil qilish guruhi

Ismi sharifi	Lavozimi
Q.Normamatov	“Tuman DQQSh” mudiri
A.Xudoyorov	Tuman Statistika bo‘limi boshlig‘i

IV-gurux

Neft mahsulotlari ta’minoti guruhi

Ismi sharifi	Lavozimi
T.Toksanboev	“Zamin Angor cluster” MChJ boshlig‘i

B.Jo‘raev

Tuman QXB bo‘lim boshlig‘i

V-gurux**Hisob-kitob ishlari monitoringi guruhi**

Ismi sharifi	Lavozimi
B.Sattorov	Tuman QXB bo‘limi mutaxassis, guruuh rahbari
O.Xudoyqulov	“Tuman DQQSh” Buxgalteri
P.Annaev	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi buxgalteri
S.Kuchkarov	Tuman davlat moliyaviy nazorati bo‘limi boshlig‘i
A.Xudoyorov	Tuman Statistika bo‘limi boshlig‘i
I.Xakimov	ATB “Agro bank” Tuman filiali boshqaruv raisi
G‘. Musurmonov	“Agroservis MTP” MChJ raisi o‘ribbosari

VI-gurux**Tuzilgan shartnomalarining bajarilishini****monitoring qilish guruhi**

Ismi sharifi	Lavozimi
Sh.Normurodov	Tuman prokurorining katta yordamchisi, guruuh rahbari
D.Alikulov	“Tuman DMQQSh” Buxgalteri
P.Annaev	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi buxgalteri
G‘.Musurmonov	“Agroservis MTP” MChJ raisi o‘ribbosari

Angor tuman hokimining
2022 yil 16 maydagi
55-8-109-F/22-son farmoyishiga
4-ilova

**2022 yil hosili uchun ekilgan boshqoli don ekinlari o‘rim-yig‘imini tashkil
qilish guruhlariga yuklatilgan**

V A Z I F A L A R I

I-guruhi

**G‘alla o‘rish kombaynlaridan samarali foydalanish va
ehtiyyot qismlar ta’minoti guruhi**

Mavsum boshlanguncha har bir tumanda don o‘rish kombaynlari uchun yetarli darajada ehtiyyot qismlar zaxirasini yaratish;

tezkor ta’mirlash va texnik yordam ko‘rsatish ko‘chma ustaxonalarini tashkil etish va ularning shtab usulida ishlashini yo‘lga qo‘yish;

o‘rim-yig‘im mavsumida don o‘rish kombaynlarining to‘xtovsiz ishlashi, ularning ishlashini otryad usulida tashkil etish, kunlik ish unumi monitoringi;

don o‘rish grafiklarini ishlab chiqish ularning bajarilishini tashkil etish va monitoringini yuritish;

don o‘rish kombaynlarining turib qolmasligi bo‘yicha alohida chora-tadbirlarning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

don o‘rish kombaynlari operatorlariga ish haqlarini berib borilishi bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish.

II-guruhi

**Donni fermer xo‘jaliklari dalasidan don korxonalariga tashishni tashkil qilish
guruhi**

Don tashish transportlarining mavsumga tayyorgarligi, avtotransport vositalalarining kechayu-kunduz ishlashi uchun ularning har biriga ikkitadan haydovchi biriktirish;

avtotransport vositalari uchun yetarlicha ehtiyyot qismlar zaxirasini yaratish, haydovchilar uchun barcha shart-sharoitlar va ularni rag‘batlantirib borish ishlarini tashkil qilish;

avtotransport vositalarining fermer xo‘jaliklari dalasidan don qabul qilish

maskanlarigacha bo‘lgan harakat marshrutlarini hokimlik, ichki ishlar idoralari va don korxonalarini tomonidan tasdiqlash;

don ortilgan avtotransport vositalarining belgilangan marshrutlardan harakatlanishini tashkil etish va nazoratga olish;

don ortilgan avtotransport vositalarining xizmati davomida g‘allani talon-taroj qilmaslik hamda harakat yo‘nalishlarida patrul xizmatlari kuzatuvlarini tashkil etish.

III-guruh

Don qabul qilishni tashkil qilish guruhi

Barcha don qabul qilish punktlarining kechayu-kunduz ishlashini g‘alla qabul qilish davrida qabul inshootlarining to‘g‘ri va haqqoniy to‘ldirilishini ta’minlash;

don ortilgan avtoulovlarining sababsiz turib qolmasligi choralarini ko‘rish;

urug‘lik don navlarining aralashib ketmasligi, don topshiruvchilar uchun qabul punktlarida yetarli sharoitlar yaratilishini tashkil etish;

boshoqli don tayyorlash bo‘yicha har kunlik ma’lumotlarni (svodka) Respublika shtabiga taqdim etib borish;

don korxonalarida qo‘sib yozish, talon-tarojlik, hujjatlarni soxtalashtirish kabi noqonuniy holatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

shaxobchalarga qabul qilingan g‘allani saqlash, asosiy korxonalarga ortish, o‘zining hisob-kitobini to‘g‘ri yuritish;

qabul qilingan g‘allaning sifatini to‘g‘ri aniqlash, shu jumladan, donning iflosligi, namligi va boshqa ko‘rsatkichlarini aniqlashda hujjatlarni soxtalashtirishga yo‘l qo‘ymaslik;

namlik va ifloslik darajasi standart talablariga javob bermagan don partiylarini qabul punktlari hududida tozalab, quritib olishni tashkil etish;

har bir qabul punktlarida don tozalash agregatlarining tayyorgarligini qayta ko‘rib chiqish, ushbu maskanlar hududlarida donni tozalash va quritish uchun alohida maydonlarni ajratish.

IV-guruh

Neft mahsulotlari ta'minoti guruhi

G‘alla o‘rim-yig‘im mavsumida qatnashadigan don o‘rish kombaynlari va avtotransport vositalarini yoqilg‘i-moylash materiallari bilan uzlucksiz ravishda ta’minalash;

hududlarda zarur miqdorda yoqilg‘i-moylash materiallari zaxiralarini yaratish;

yoqilg‘ining don o‘rish kombaynlari va avtotransport ishlaydigan dalagacha yetkazib berishni tashkil etish.

V-guruh

Hisob-kitob ishlari monitoringi guruhi

Nafaqat davlat buyurtmasi uchun xarid qilinadigan g‘allaning hisob-kitobini, balki umumiy ishlab chiqariladigan don, uning hosildorligi bo‘yicha to‘liq hisob-kitoblarni yuritish hamda monitoring ma’lumotlarini har kuni Respublika shtabiga taqdim etib borish;

mavsumda qatnashadigan kombayn operatorlari va ishchilarga ish haqi berib borish, o‘rim-yig‘im mavsumida zarur bo‘lgan mablag‘larning o‘z vaqtida ajratilishini tashkil etish;

topshirilgan g‘alla uchun qabul kvitansiyalarining o‘z vaqtida haqqoniy to‘ldirilishi, ularning tijorat banklariga keyinchalik yakuniy hisob-kitoblar uchun jamg‘armaga taqdim etilishini tashkil qilish;

topshirilgan don uchun fermer xo‘jaliklari bilan yakuniy hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshiradi.

VI-guruh

Tuzilgan shartnomalarning bajarilishini

monitoring qilish guruhi

Fermer xo‘jaliklari va g‘allachilik klasterlari tomonidan tovar va urug‘lik don uchun tuzilgan shartnomalarning bajarilishi bo‘yicha to‘liq monitoring yuritish;

tuzilgan shartnomalarni bajara olmasligi kutilayotgan fermer xo‘jaliklarini aniqlash, ularning birinchi navbatda davlatga don sotish topshirig‘ini bajarish choralarini ko‘rish;

tuzilgan shartnomalarni bajarmagan, umuman don topshirmagan fermer xo‘jaliklaridan xarajatlarni to‘liq undirib olish va sudga berish choralarini ko‘rish;

shartnomani bajarmagan fermer xo‘jaliklarining o‘z ixtiyori bilan davlat resursiga qo‘srimcha don topshirish hajmlari bo‘yicha hisob-kitoblarini aniqlash;

qo‘srimcha don topshirgan fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish bo‘yicha mahalliy hokimliklar bilan birgalikda tadbirlar ishlab chiqish.